
QIRGULI MAVZESINING ELEKTR TAʼMINOTI YaxshILANMOQDA

Qirguli elektr taʼminoti korxonasi tomonidan Qirguli mavzesidagi isteʼmolchilarni elektr taʼminotini yaxshilash maqsadida 110/6 kVli «Vatan» podstantsiyasidan chiquvchi 6 kVli «Quruvchi» elektr uzatish kabel tarmogʻining boshlanish kabel qismi toʻliq yangilanmoqda. Bu bilan oʻta yuklama bilan ishlayotgan 6 kVli «Bunyodkor» elektr uzatish kabel tarmogʻining bir qismi mazkur tarmoqqa oʻtkaziladi.

Amalga oshirilayotgan mazkur jarayon kelgusida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan favqulodda avariya uzilishlarni oldini olishga qaratilgan. Isteʼmolchilarni elektr energiyasi bilan taʼminlashda tarmoqlarda yuzaga kelayotgan nosozliklarni bartaraf etish, ularni oldini olish boʻyicha hududlarda keng koʻlamli amaliy ishlar olib borilmoqda.

2023-01-23 09:24:29